

## **Andijon viloyati hokimining iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari vazifalarining taqsimoti**

Iqtisodiyot masalalariga rahbarlik qiladi, iqtisodiyot va ijtimoiy soha kompleksiga kiruvchi hududiy boshqarmalar faoliyatini muvofiqlashtiradi.

- hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish prognozlarini shakllantiradi, hududlar byudjetini ishlab chiqishda va mahalliy byudjetni mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlarni ta'minlashda ishtirok etadi.
- tashqi iqtisodiy aloqalar borasidagi faoliyatni kengaytirishga, investitsiyalarni, jumladan xorijiy investitsiyalarni jalb etishga imkoniyat yaratadi.
- hokimiyat tuzilmalarining bozor infratuzilmalari sub'ektlari, shu jumladan tijorat banklar, birjalar, sug'urta kompaniyalari bilan birgalikdagi faoliyatini ta'minlaydi.
- davlat mulkini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish, qimmatbaho qog'ozlar bozorida korxonalar aksiyalar paketlarini sotish ishlarini muvofiqlashtirish va nazorat qilish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishini ta'minlaydi.
- viloyat iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi oshirilishiga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, shuningdek bozor infratuzilmasini rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.
- zarar ko'rib ishlayotgan va istiqbolsiz korxonalarni sanatsiya qilish, yo'nalishini o'zgartirish va tugatish dasturlarini ishlab chiqish va ularni bajarish yuzasidan nazoratni ta'minlaydi.
- resurslarni tejavchi texnologiyalar va mexanizmlar joriy etilishini, yoqilg'i-energetika resurslari tejalishini ta'minlovchi dasturlarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni qabul qiladi.
- iste'molchilar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.
- bandlik va aholining ijtimoiy ta'minotini tashkil etish, davlat statistikasining ishonchligini ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiradi.
- mahalliy soliqlar va boshqa yig'imlar xajmini belgilash, narx-navo siyosati, ishlab chiqarishni rag'batlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha mavjud Qonun va hukumat qarorlarining bajarilishini ta'minlaydi. Aholining elektr, gaz, issiqlik energiyasi, ichimlik suvi, telefon va boshqa kommunal xizmatlar uchun to'lovlari masalalari bo'yicha kommunal foydalanish korxonalari faoliyatini muvofiqlashtiradi.
- aholiga pullik xizmat ko'rsatish, aholini oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, bozorlar tizimini takomillashtirishni va savdo yarmarkalarini o'tkazishni tashkil etadi.
- iqtisodiy islohotlarning borishi natijalarini o'rganib umumlashtiradi, ularni yanada chuqurlashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi.
- viloyat iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish, istiqbolni belgilash, kredit va pul muomilasi masalalari bilan bog'liq komissiyalar faoliyatiga rahbarlik qiladi.
- ijtimoiy soha boshqaruv organlarining tarmoq va funktsional faoliyatlarini muvofiqlashtiradi, ijtimoiy soha boshqaruv tuzilmalarini isloh qilish va yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.
- kadrlar tayyorlash milliy dasturi amalga oshirilishini tashkil etadi.
- xalq ta'limi masalalari bo'yicha davlat siyosatini yuritishni ta'minlaydi, umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga imkon yaratadi.
- sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturini amalga oshirish va sifatli tibbiy xizmatlar ko'rsatishda aholining ehtiyojini qondirish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

- madaniyatni rivojlantirish bo'yicha maqsadli dasturlarini amalga oshiradi, aholining dam olish sohasini rivojlantirish, xalq ijodiyoti va milliy madaniyatini qo'llab-quvvatlash tadbirlarini ishlab chiqish va ijro etishni ta'minlaydi.
  - ommaviy jismoniy tarbiya, bolalar va professional sportni yanada rivojlantirish, madaniy boyliklar va yodgorliklarni saqlash hamda rivojlantirish, mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda turizm tarmog'i infratuzilmasini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.
  - iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish masalalari bo'yicha respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan hamkorlik qiladi.
  - iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo'yicha kotibiyat faoliyatiga rahbarlik qiladi.
  - shaharlar, tumanlar, qishloqlarning tashqi ko'rinishini estetik did bilan bezatishni muvofiqlashtirish masalalariga rahbarlik qiladi.
  - milliy va davlat bayramlarini o'tkazishni tashkil qiladi.
  - ilmiy muassasalar, oliy va o'rta-maxsus o'quv yurtlarining kundalik masalalarini muvofiqlashtiradi.
- Viloyat hokimligi apparati va uning samarali faoliyat ko'rsatishiga doir masalalar bilan shug'ullanadi.

**Quyidagi viloyat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirib boradi.**

- viloyat xalq ta'limi boshqarmasi;
- viloyat o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmasi;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat test markazi Andijon viloyati bo'yicha vakili;
- Andijon davlat universiteti;
- Toshkent tibbiyot akademiyasining Urganch filiali;
- Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali;
- viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi;
- viloyat davlat sanepidnazorat markazi;
- viloyat "Dori-darmon" ochiq aktsiyadorlik jamiyati;
- viloyat madaniyat va sport ishlari boshqarmasi;
- viloyat teleradiokompaniyasi;
- "O'zbekturizm" kompaniyasi viloyat hududiy boshqarmasi;
- viloyat arxiv ishi boshqarmasi;
- "O'zbeknavo" estrada birlashmasi viloyat bo'limi;
- "Tibtexnika" mas'uliyati cheklangan jamiyati;
- iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyati viloyat bo'limi
- viloyat "Yoshlik" sport jamiyati;
- viloyat "Dinamo" sport jamiyati;
- viloyat Rassomlar uyushmasi;
- Respublika jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi;
- Fan va texnika markazi viloyat bo'limi;
- viloyat "Usto" birlashmasi;
- "Andijonkitobsavdo" ochiq aktsiyadorlik jamiyati.
- Viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasi;
- viloyat statistika boshqarmasi;
- viloyat moliya boshqarmasi;

- viloyat mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasi;
- “Kafolat” DASK Andijon viloyati filiali;
- viloyat davlat mulkini boshqarish boshqarmasi;
- viloyat tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo boshqarmasi;
- Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi;
- O‘zbekiston Respublikasi aktsiyadorlik tijorat “Agrobank” viloyat. boshqarmasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Xalq banki viloyat boshqarmasi;
- O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat “Milliy bank” Urganch bo‘limi;
- O‘zbekiston Respublikasi aktsiyadorlik tijorat “Turon bank” viloyat bo‘limi;
- O‘zbekiston Respublikasi “Qishloq-qurilishbank” aktsiyadorlik tijorat bank» viloyat bo‘limi;
- O‘zbekiston Respublikasi aktsiyadorlik tijorat “Asaka bank” viloyat bo‘limi;
- O‘zbekiston Respublikasi aktsiyadorlik tijorat “Ipoteka bank” Andijon filiali;
- O‘zbekiston Respublikasi aktsiyadorlik tijorat “Savdogarbank” viloyat bo‘limi;
- O‘zbekiston Respublikasi ixtisoslashtirilgan aktsiyadorlik tijorat “Mikrokreditbank” viloyat bo‘limi;
- O‘zbekiston Respublikasi ixtisoslashtirilgan aktsiyadorlik tijorat “Sanoatqurilishbank” viloyat bo‘limi;
- O‘zbekiston Respublikasi aktsiyadorlik tijorat “Aloqabank” Andijon filiali;
- O‘zbekiston Respublikasi monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Andijon viloyati hududiy boshqarmasi;
- O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Andijon viloyatidagi nazorat-taftish boshqarmasi;
- viloyat “Agrosugurta” DASK boshqarmasi;
- “Madad” sug‘urta agentligining viloyat filiali;
- viloyat davlat soliq boshqarmasi;
- viloyat savdo-sanoat palatasi;
- viloyat “Kafolatsavdo” aktsiyadorlik kompaniyasi;
- viloyat “Bozorsavdo” uyushmasi;
- “Andijon sharob savdo” bazasi;
- “Xonqa sharob savdo” bazasi;
- “Xiva sharob savdo” bazasi;
- “Yangibozor sharob savdo” bazasi;
- Osiyo taraqqiyoti banki loyihasining Andijon viloyatida amalga oshirish guruhi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Respublika Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari, xalq deputatlari viloyat Kengashi qarorlari, viloyat hokimi qarorlari hamda farmoyishlari ijrosini majmua kotibiyati apparati, o‘z tasarrufidagi tashkilotlar va idoralarda takomillashtirish va mustahkamlash masalalari.

Viloyat hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari

Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va xo‘jalik tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari va ularning sheriklari o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar qabul qiladi.

Xom ashyo va material resurslardan samarali foydalanishni ta‘minlaydi, qishloq tovar ishlab chiqaruvchilariga er resurslari ajratishning bozor shaklini rivojlantiradi.

Qishloqda bozor tuzilmalarini shakllantirishga, fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va mustahkamlashga, ularni moddiy va texnik jihozlanishini yaxshilashga imkoniyat yaratadi.

Ishlab chiqarish muvozanatini ta'minlash jarayonlarini va viloyat hududida etishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni yaxshilash chora-tadbirlarini muvofiqlashtiradi.

Suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlaydi, erlarning meliorativ holatini yaxshilash va unumdorligini oshirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiradi, tabiatdan foydalanish va atrof muhit muhofazasi sohasida chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Agrosanoat kompleksida yagona texnika va texnologiya siyosati yuritishni, ilg'or texnologiyalarni ilmiy asoslash va joriy etishni, qishloq ijtimoiy infratuzilmalari rivojlantirilishini tashkil etadi.

Agrosanoat kompleksining eksport potentsialini oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Viloyat qishloq xo'jaligini rivojlantirishning istiqbolli rejaları va dasturlarini ishlab chiqishni ta'minlaydi va ularning bajarilishini nazorat etadi.

Qishloq xo'jaligida ishlovchi rahbar kadrlar malakasini oshirish, ularni o'qitish va o'zaro tajriba almashishlarini tashkil etishga rahbarlik qiladi.

**Quyidagi viloyat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtiradi va birga ish olib boradi:**

- viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi;
- "Toshsaqa" irrigatsiya tizimi boshqarmasi;
- "Polvon-Gozovot" irrigatsiya tizimi boshqarmasi;
- "Shovot-Kulovot" irrigatsiya tizimi boshqarmasi
- "Qoramazi-Qilichboy" irrigatsiya tizimi boshqarmasi;
- "Andijonpaxtasanoat" aksiyadorlik birlashmasi;
- "Bog'otdavsuvmaxsusudrat" davlat unitar korxonasi;
- "Qo'shko'pirdavsuvmaxsusudrat" davlat unitar korxonasi;
- "Urganchdavsuvmaxsusudrat" davlat unitar korxonasi;
- "Hazoraspdavsuvmaxsusudrat" davlat unitar korxonasi;
- "Yangibozordavsuvmaxsusudrat" davlat unitar korxonasi;
- viloyat "Qishloqxo'jalikkimyo" aksiyadorlik birlashmasi;
- "Andijon viloyati mashina-traktor parklari birlashmasi" OAJ;
- "Andijondonmahsulotlari" aksiyadorlik uyushmasi;
- "Bog'otdon" aksiyadorlik jamiyati;
- "Shovotdon" aksiyadorlik jamiyati;
- "Xonqadon" aksiyadorlik jamiyati;
- viloyat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi;
- viloyat er resurslari va davlat kadastri boshqarmasi;
- viloyat veterinariya davlat boshqarmasi;
- viloyat davlat texnika nazorat inspeksiyasi;
- viloyat chorvachilikda naslchilik bo'yicha davlat inspeksiyasi;
- viloyat o'simliklar karantini inspeksiyasi;
- O'zbekiston paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti Andijon filiali;
- Quyi Amudaryo irrigatsiya kanallari boshqarmasi;

- “Andijonmaxsustuzatish” korxonasi;
- “Amudaryo” suv xavzasi birlashmasi;
- viloyat o‘rmon xo‘jaligi;
- O‘zbekiston qishloq xo‘jalik ilmiy ishlab chiqarish markazining Andijon viloyati bo‘limi;
- “Andijonsharob” ochiq aktsiyadorlik jamiyati;
- viloyat gidrometeorologiya boshqarmasi;
- “O‘zdavsuvxo‘jaliknazorat” davlat inspeksiyasi;
- “O‘zdaverloyiha” instituti viloyat bo‘limi;
- viloyat “Agrointexnika” MMTP davlat unitar korxonasi;
- viloyat nasos inshootlari va elektr tarmoqlari boshqarmasi;
- “Andijon pilla” birlashmasi;
- viloyat ko‘kalamzorlashtirish boshqarmasi;
- “O‘zqishlokxo‘jalikmashlizing” ALK viloyat filiali;
- viloyat “Davurug‘nazoratmarkazi”;
- viloyat “Paxta urug‘chiligi” birlashmasi;
- “Andijon viloyati chorva ozuqasi” bosh boshqarmasi;
- “Andijonsuvqurilish” birlashmasi

Viloyat hokimligi apparatida, hududiy boshqaruv organlarida va mahalliy hokimiyat organlari faoliyatida ijro intizomini takomillashtirish va mustahkamlash masalalari bilan shug‘ullanadi.